

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**"KELISHILGAN"**  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lif vazirligi:

“\_\_\_” 2021 yil



“\_\_\_” 2021 yil

**5A230101 – IQTISODIY NAZARIYA**

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA  
KIRISH SINOVLARI UCHUN  
MAXSUS FANLARDAN**

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

**Samarqand - 2021**

## **Annotatsiya**

Dastur 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishining 2017/2018 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

### **TUZUVCHILAR:**

SamDU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri, dotsent **A.N.Nizomov**

SamDU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, i.f.n. **B.M.Boboqulov**

SamDU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, PhD. **SH.S. SHarifov**

Dastur Inson resurslarini boshqarish fakultetining 2021 yil 29 iyundagi № 12 sonli kengashi yig'ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-

son yig‘ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

## KIRISH

5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – iqtisodiyot sohasidagi yo'nalish bo'lib, u turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, sohalarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari, moliya, kredit va sug'urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliv ta'lim muassasalarning iqtisodiy, moliya, marketing, ishlab chiqarish – iqtisodiy va tahlil xizmatlarini o'z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalarini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

- Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi - xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar; ejalashtirish ishlarini tashkil etish; xo'jalik yurituvchi sub'ektni xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o'rganish; ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish; mehnatni muhofaza qilish me'yor va qoidalariga amal qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish; zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar echimlarini amaliyotga tatbiq etish; fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruq qarorini qabul qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish; bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash; atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish; favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish; ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalg qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtiroy etish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo'linmalarini tashkil etish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning

namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llash; bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish; zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish; ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni toplash, qayta ishlash va tahlil qilish; qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot toplash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish; tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish; loyihalar samaradorligini baholash; mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonnari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ko'rsatkichilari o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash; tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish; axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash; ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish; yangi biznes- loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish; biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A230101-Iqtisodiy nazariya, magistratura mutaxassisligiga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 3 ta umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha: Iqtisodiyot nazariysi, Makroiqtisodiyot, Global iqtisodiy rivojlanish, Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, Institutsional iqtisodiyot nazorat savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

## **“IQTISODIYOT NAZARIYASI” fani bo‘yicha**

Iqtisodiyot tushunchasi, uning bosh masalasi va uning qamrov jihatidan turlari. Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi. Ehtiyojlarning o‘sib borishi qonuni. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar). Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko‘rsatkichlari. Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikasiya qilish jarayonlarining davom ettirilishi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishgan bo‘lgan turlicha yondashuvlar. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulk ob’ektlari va sub’ektlari. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni. O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yo‘llari, maqsadi va usullari. Xususiy mulkchilik tarmog‘ini kengaytirish – mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida.

Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o‘tish va uning rivojlanishi. Tovar va uning xususiyatlari. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari. O‘zbekistonda milliy valyuta pul - so‘mning muomalaga kiritilishi va uni 2003 yil 15 oktyabrdan joriy xalqaro operatsiyalar bo‘yicha erkin almashtirishini yo‘lga qo‘yilishi.

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari. Bozor tushunchasi va bozorning vazifalari. Bozor turlari va tuzilishi. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari. O‘tish davri iqtisodiyoti nazariyasi, uning belgilari, turlari va qonuniyatları. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish modellari, ularning farqlari va umumiyl tomonlari.

Talab tushunchasi, uning egri chizig‘i va talab qonuni. Talab elastikligidan real hayotda foydalanish. Taklif tushunchasi, uning egri chizig‘i va taklif qonuni. Taklifning hajmiga ta’sir etuvchi omillar. Taklif elastikligi. Talab va taklifning mos kelishi. Bozor muvozanati.

Raqobatning mohiyati, obe’ktiv asoslari va rivojlanish bosqichlari. Raqobatning shakllari va usullari. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy oqibatlari. O‘zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik.

Narxning mazmuni va obe’ktiv asoslari. Narxning hajmiga ta’sir etuvchi omillar va narxning vazifalari. Narx turlari va ularning mazmuni. Raqobatning turli ko‘rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. Narx siyosati va uning O‘zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari.

Tadbirkorlik faoliyati moxiyati va asosiy belgilari. Biznesni tashkil qilish asoslari. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari. Aksionerlik jamiyatini tashkil qilish va faoliyatining asosiy tamoyillari. Tadbirkorlik kapitalining aylanish vaqt va aylanish tezligi. Asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi. Biznes uchun qulay muhit yaratish va uning kafolatlarini mustahkamlash – mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida. Aholi bandligini ta’minlash, uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili

sifatida xizmatlar ko'rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish hamda davlat tomonidan oilaviy biznesni qo'llab quvvatlash. Ishlab chiqarish harajatlari tushunchasi va uning tarkibi. Ishlab chiqarish harajatlari turlari.

YAratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari. Ish haqining tabaqlanishi, YAgona tarif tizimi, uning maqsadi va vazifalari. Mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli.

Agrar munosabatlar va ularning xususiyatlari. Ijara xaqi va renta munosabatlari. Renta turlari va ularga tavsifnomasi. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi. Agrobiznes va uning turlari.

Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. YAlpi milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari. YAlpi milliy mahsulotni hisoblash usullari. YAlpi milliy mahsulot hajmini o'zgarmas baholarda hisoblash usullari. Milliy hisoblar tizimi, uning maqsadi va vazifalari. O'zbekistonda 2020 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atlarining ta'minlanishi. O'zbekistonda yalpi milliy mahsulotni ko'paytirish omillari va yo'llari.

YAlpi talab tushunchasi, yalpi talab egri chizig'i va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. YAlpi taklif tushunchasi, yalpi taklif egri chizig'i (klassik, oraliq - keynsian kesmalar) va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. YAlpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatlik hamda uning o'zgarishi.(Valras modeli). J.B.Sey qonuni. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yalpi talabning qisqarishi hamda uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora tadbirlar.

Iste'mol va jamg'armaning mazmuni.Iste'mol va jamg'arish fondlarining shakllanishi. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi optimal nisbat. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha va oxirgi moyillik. Jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi. Nominal va real jamg'arish. Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. Investitsiyalar turlari va investitsiya hajmiga ta'sir etuvchi omillar. O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilishi.

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari va turlari. Iqtisodiy o'sishning maqsadi,omillari va yo'nalishlari. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi. O'zbekistoning iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish omillari. Mamlakatimizda qabul qilingan 2020-2021 yillarda Pandimeya oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha dasturni amalga oshirish, shu asosda iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash.

Iqtisodiy muvozanatlik, uni ta'minlash shart sharoitlari va aniqlash usullari. Iqtisodiy muvozanatlikni aniqlashda tarmoqlararo balans hamda daromad harajatlarni taqqoslash usullaridan foydalanish. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari. O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini o'zgartirishdagi asosiy vazifalar. O'zbekistonda ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifalari.

Ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Ishchi kuchining bandligi va uning darajasi. Ishsizlik, uning turlari va oqibatlari. Ouken qonuni. Ishchi kuchi bozorining mohiyati, tuzilishi va uni tartibga

solist usullari. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ishchi kuchi bozorini shakllantirish, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning tadbirdari. 2020 yilda ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash dasturining ahamiyati.

Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi va uning tarkibiy bo‘g‘inlari. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari. Soliq tizimi va uning vazifalari. O‘zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari. Byudjet va soliq islohotlarini chuqurlashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish hamda soliq yukini yanada kamaytirish – mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida.

Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatları. Pulga bo‘lgan talab va pul taklifi. Inflyasiya, uning mohiyati va turlari. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari. O‘zbekistonda milliy valyutani mustaxkamlash vazifalari.

Aholining daromadlari, ularning turlari va manbalari. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash. Ijtimoiy himoyaning mazmuni va uning shakllari. Hozirgi bosqichda kasanachilik sohasi bandlik va oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo‘sishma manbaiga aylanib borayotganligi.

Jahon xo‘jaligining globallashuvi yo‘nalishlari va ziddiyatlari. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infrato‘zilmasining rivojlanishi. Jahon xo‘jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish. Jahon xo‘jaligi globallashuvi jarayonlarining ziddiyatli tomonlari.

Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari. Zamonaviy moliyaviy kapital faoliyatining xususiyatlari.

## **MAKROIQTISODIYOT fani bo‘yicha:**

Makroiqtisodiyot fanining shakllanishi. Fanning predmeti va ob’ekti. Makroiqtisodiyotning iqtisodiyot sohasidagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot. “Daromadlar-xarajatlar” va “resurslar-mahsulotlar” oqimi. Makroiqtisodiyot sub’ektlarining o‘zaro aloqalari, maqsad va funksiyalari. Makroiqtisodiy siyosat ko‘rinishlari.

Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi. Milliy hisoblar tizimining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichi sifatida YAlpi ichki mahsulot (YAIM) ko‘rsatkichining mohiyati. YAIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli. Boshlang‘ich daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Iste’mol. Jamg‘arish. YAlpi milliy tasarrufdagi daromad. Daromadlar va xarajatlar tengligi. Investisiyalar va jamg‘armalar tengligi. Iste’mol narxlari indeksi (INI). Fisher indeksi. YAIMni hisoblash usullarini takomillashtirish zaruriyati va yo‘nalishlari.

Iqtisodiy tebranishlarning sabablari: Ilmiy texnika taraqqiyoti. Iqtisodiy davrlarning bosqichlari va ularning tavsifi. Iqtisodiy tebranishlarning turli tarmoqlarga ta’siri. Iqtisodiy tebranishlarning hozirgi kundagi xususiyatlari. Iqtisodiy tebranishlarga bozorlardagi monopol tuzilmalar, davlatning taribga soluvchilik roli, ilmiy texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishnig baynalminallashuvi ta’siri.

Real ish haqi, ish kuchi taklifi va unga talab. Ishsizlikning keynscha konsepsiysi. Ishsizlik turlari va ish bilan to‘la bandlik. Ishsizlikning haqiqiy va tabiiy darajasi. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken konuni. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari.

O‘zbekiston Respublikasida yangi ish o‘rinlar yaratish va aholining ish bilan bandligini ta’minalash siyosatining xususiyatlari va yo‘nalishlari.

Inflyasiya: mohiyati, hisoblanishi va turlari. Inflyasiya sur’ati. Inflyasiyaning sabablari, puling miqdoriy nazariyasi. Pul massasining ko‘payishi. Pulning aylanish tezligi ortishi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi. Inflyasiyaning ijtimoiy oqibatlari. Antiinflyasiya siyosatining mohiyati, vositalari. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi inflyasiya jarayonlari va antiinflyasiya siyosati xususiyatlari.

YAlpi talab tushunchasi. Pulning miqdoriy nazariyasi. Baholar darajasi va yalpi talab o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik. Iste’mol xarajatlaridagi, investitsiya xarajatlaridagi, davlat xarajatlaridagi va sof eksportdagi o‘zgarishlar. YAlpi taklif tushunchasi va egri chizig‘i. Resurslar bahosning o‘zgarishi. YAlpi taklifning keynscha modeli. Nominal kattaliklarning nisbatan qat’iyligi. Real kattaliklarning nisbatan o‘zgaruvchanligi. AD-AS modelida muvozanatning ta’minalishi mexanizmi. Talab shoklari. Taklif shoklari. YAlpi taklif o‘zgarishining oqibatlari. Pul taklifi va davlat xarajatlarining o‘zgartirilishi.

Jamg‘arish funksiyasi va grafigi. Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg‘armalari.

O‘zbekiston Respublikasida ise’mol va jamg‘arish jarayonlari xususiyatlari.

Investitsiya tovarlariga talabining yalpi talabdagagi o‘rnii Investitsiyalarga talab

funksiyasi. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi boshqa omillar.

Klassik makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi tanqidi. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi. Bozor mexanizmi tomonidan yalpi talab va yalpi taklif muvozanati ta'minlanishining doimiy emasligi. "Investitsiya-jamg'arish" modeli. "Daromadlar - xarajatlar" modeli – Keyns xochi. Iste'molga chegaraviy moyillik va multiplikatsiya samarasi. Multiplikator formulasi. Resession va inflayasion uzilish.

Pul tushunchasi va funksiyalari. Pulga talabga monetarcha yondoshuv. Fisher va Kembrij tenglamalari. Pulning aylanish tezligi. Baholar darajasi, real YAIM hajmi va pulga. Pulga talab egi chizig'i grafigi. Fisher samarasi.

Pul taklifi. Naqd pullar va depozitlar. Tijorat banklari tomonidan "pul massasining yaratilishi". Pullarning depozitlardan naqd pullarga oqib o'tishi, deponentlash koeffisenti. Markaziy Bank tomonidan pul taklifini nazorat qilish va tartibga solish vositalari.

Davlat byudjetining mohiyati, tarkibi va funksiyalari. Daromadlarni qayta taqsimlash. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish. Fantexnika taraqqiyotini rag'batlantirish. Ijtimoiy siyosatni moliyaviy ta'minlash. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi.

Byudjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Soliqlarni kamaytirilishi samarasi va davlat xarajatlarini oshirilishi samarasi. Diskret fiskal siyosat. Davlat byudjeti taqchilligi va profisiti. Nodiskret fiskal siyosat. Progressiv soliq tizimi. Davlat transfertlari tizimi. Davriy taqchillik va davriy profisit. O'zbekiston Respublikasibyudjet-soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

Markaziy bank va tijorat banklarining funksiyalari. Banklarning asosiy operasiyalari va bozor iqtisodiyotidagi roli. Pul-kredit siyosatining mohiyati, pirovard maqsadlari va oraliq mo'ljallar. Majburiy zahira normasi. YAIMning o'sishi va pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining ko'zda tutilmagan salbiy samaralari. Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatini muvofiqlashtirish muammolari, siqib chiqarish samarasi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi barqarorligini oshirish va pul-kredit siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

Iqtisodiy o'sish tushunchasi, ahamiyati. Iqtisodiy o'sishning o'lchanishi, real YAIM va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YAIM dinamikasi. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy o'sishning taklif, talab va taqsimot omillari.

Xalqaro savdoning zarurligi va ko'rinishlari. Jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo ko'lamlarining ortib borishi. A. Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi. D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi. Turli tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi nisbat. Ishlab chiqarish xarajatlari va o'rin almashtirish xarajatlari doimiyligi shartlari. M Porter nazariyasi, raqobat ustunligini belgilovchi omillar. Jahon bozorida talab va taklif. Muvozanatli baho. Manfaatlarning taqsimlanishi.

Tashqi savdo siyosati: mohiyati va maqsadlari, usullari. Milliy farovonlikning sof yo'qotilishi. Ta'riflarni yoqlovchi hamda ularga qarshi fikrlar. YAngi paydo bo'lgan tarmoqlarni himoya qilish. Ichki bandlilik va davlat daromadlarining o'sishi. Resurslarni raqobatbardosh bo'limgan sohalarga yo'naltirish. Tashqi savdo

dinamikasi, tovarlarga ko‘ra tarkibi va diversifikasiyalash.

To‘lov balansi tushunchasi, makroiqtisodiy roli, tuzish tamoyillari. Kapital xarakati va moliyaviy operatsiyalar balansi. Sof xorijiy investitsiyalar va kreditlar. Markaziy Bankning rasmiy valyuta zahiralari bilan operatsiyalari. To‘lov balansi inqirozi va undan chiqish.

Valyuta bozori. Valyuta ayirboshlash zarurati. CHet el valyutasiga talab. CHet el valyutasini taklif etish. CHet el valyutasiga talab va uni taklif etishning kichik mamlakat modeli. Valyuta bozorida muvozanatning kichik mamlakat modeli. Egiluvchan va qayd etilgan valyuta kursi. Valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar: foiz stavkalarining o‘zgartirilishi, ishlab chiqarishning real hajmlari. Makroiqtisodiy siyosatning muvozanatlari valyuta kursiga ta’siri.

Ochiq iqtisodiyotda muvozanatli ishlab chiqarish hajmi. Ochiq iqtisodiyotda yalpi ishlab chiqarish hajmi. Ichki xarajatlar va savdo balansi. Sof eksport. Ichki xarajatlar va milliy ishlab chiqarish hajmi. Eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta’siri. Eksport va import o‘rtasidagi bog‘liqlik. Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati. Qayd qilingan valyuta kursi va kapitalning yuqori mobilligi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat. Kapitalning past mobilligi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat.

## **GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH fani bo‘yicha:**

Global iqtisodiy rivojlanish fanining predmeti va uslublari. Juhon iqtisodiyotini globallashuvi ob’ekti va sub’ekti. Juhon iqtisodiyotini globallashuvi mohiyati, kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari va darajalari. Juhon iqtisodiyotni globallashuvining vujudga kelishi va rivojlanishini shart-sharoitlari: texnologik taraqqiyot; kapitalning konsentarsiyalashuvi va markazlashuvi; xalqaro biznesning integratsiyalashuvi; juhon iqtisodiyotining erkinlashuvi; xalqaro moliya institutlari faoliyat doirasining kengayishi; global muammolar tomonidan xavfning kuchayishi; milliy va xalqaro miqyosda siyosiy tizimlarning o‘zgarishi. Globallashuv tushunchasining keng va tor ma’nodagi ta’rifi. Globallashuv tushunchalarining rivojlanish evolyusiyasi. Globallashuv jarayoni va uning chuqurlashuv bosqichlari: integratsiyalashuv; transmilliyashuv; globallashuv. Globalashuv turlari: siyosiygloballashuv; iqtisodiy globallashuv; moliyaviy globallashuv. Juhon iqtisodiyoti globallashuvining namoyon bo‘lish shakllari. Globallashuv jarayonining iqtisodiy, siyosiy, texnik, erkinlashuv omillari. Juhon iqtisodiyoti globallashuvining ustuvor yo‘nalishlari. Juhon iqtisodiyoti globallashuvi darajalari: megadaraja; makrodaraja; mezodaraja; mikrodaraja. Juhon iqtisodiyotining globallashuvi ko‘rsatkichlari. -Global iqtisodiy rivojlanish|| fanining umumiqtisodiy va mutaxassislik fanlari bilan bog‘liqligi, fanning vazifalari.

Globallashuvga bag‘ishlangan ilmiy qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi. Globallashuv nazariyalarining rivojlanish bosqichlari: 1950-1990 yillar (R.Robertson, M.Uoters, G.Ternborn, A.Zinovev, I.Vallerstayn, D.Meyer,

N.Luman). 1990-2000 yillar (I.Vallerstayn, G.Ternbon, M.Archer, R.Robertson, M.Fezerstoun, A.Appadurai, B.Terner, A.Zinovev, N.S.Mironenko). 2000 yillardan hozirga qadar (M.Kastels, L.G.Grinin, R.Roberston). Globallashuv jarayonining rivojlanishi. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi to‘g‘risidagi ilmiy konsepsiylar asosiy yo‘nalishlari: giperglobal; skeptik va transformatsion. Giperglobal ilmiy yo‘nalish vakillari hisoblangan K.Oman, F.Fukuyama va R.Rayxning iqtisodiy qarashlari. Skeptik ilmiy maktab vakillari S.Xantington, P.Xirst, G.Tompson, S.Krasnerlarning iqtisodiy qarashlari. Transformatsion ilmiy maktab vakillari Dj.Rozenau, D.Xeld, A.Mak- Grularning ilmiy qarashlari. Rim klubi va globallashuv nazariyalarining rivojlanishi. Global iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari:

jahon tizimlari nazariyasi (I.Vallerstayn); umumjahon madaniyati nazariyasi (R.Robertson); -umumjahon boshqaruvi nazariyasi; -global kapitalizm nazariyasi. Washington konsensus yoki AQSH iqtisodchisi Dj.Vilyamson tomonidan ishlab chiqilgan. Jahon savdosini isloh etishning 10 tavsiyasi: 1. Byudjet kamomadini minimallashtirish; 2. Korxonalarga beriladigan subsidiyalarni minimallashtirish; 3. Soliq bazasi keng, soliq stavkasi esa past bo‘lishi zarurligi; 4. Foiz stavkalari ichki moliya bozorlari tomonidan belgilanishi zarurligi; 5. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi almashuv kursi eksportni rag‘batlantirishi zarurligi; 6. Tashqi savdo tariflari minimal bo‘lishi zarurligi; 7. Xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish siyosati qabul qilinishi zarurligi; 8. Xususiylashtirish har tomonlama rag‘batlantirilishi zarurligi; 9. Davlat tomonidan tartibga solishni minimallashtirish; 10. Xususiy mulk huquqi kafolatlanishi va kuchaytirilishi zarurligi. Dj.YU.Stiglitsning iqtisodiy qarashlari.

-Transformatsion yo‘nalishi tarafdarlarining ilmiy qarashlari. XX asr boshlarida Jahon iqtisodiyoti globallashuvi nazariyalarining transformatsiyalashuvi va xususiyatlari.

Jahon iqtisodiyotni globallashuvini harakatlantiruvchi kuchlari: kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi, xo‘jalik hayoti transnatsionallashuvi – yirik transmilliy kompaniyalar va moliya guruhlarining rivojlanishi, jahon va milliy darajadagi bozor raqobati, fan texnika taraqqiyoti, texnologik innovatsiya taraqqiyoti, xo‘jalik hayotining erkinlashuvi, tovar, xizmat va kapital bozorlarini tartibga solishning qisqarishi. Jahon xo‘jaligi erkinlashuvi jarayonining kuchayishi. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy mexanizmlari: 1. Jahon savdosida raqobatning kuchayishi 2. Ko‘p millatli ishlab chiqarishning shakllanishi 3. Xalqaro moliya bozorlarining integratsiyalashuvi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar: mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikning keskin kuchayishi; milliy iqtisodiyotlar iqtisodiy ochiqligining jadal sur’atlar bilan oshishi; xalqaro savdo va kapitalning mamlakatlararo harakati asosida jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotga ta’sirining intensivlashuvi. Xalqaro mehnattaqsimoti yangi sifatining shakllanishi; Jahon moliya bozorining milliy segmentlari o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishi va

